



Sayyohlik vizasi

MUHIM ESLATMA:

- Germaniya Federativ Respublikasining Toshkentdagi elchixonasi **Visametric** firmasi bilan rasman hamkorlik qiladi. **Shundan kelib chiqib viza bo'limi sug'urta kompaniyalari, sayyohlik firmalari yoki boshqa xizmat ko'rsatuvchilar bilan hech qanday hamkorlik qilmasligini ma'lum qiladi va ularning xizmatlaridan foydalanmaslikni qat'iy maslahat beradi.**
- Elchixona web-sahifasida joylashtirilgan viza olish jarayoni haqidagi ma'lumotni o'qib chiqqaningizdan keyin ham **viza bo'yicha savollaringiz** bo'lsa ishonchli va bepul ma'lumot hamda maslahat uchun Visametricka, yoki agar viza bo'limiga qabulga yozilgan bo'lsangiz elchixonaga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qiling. Telefon raqamlari web-sahifamizda keltirilgan.
- Barcha taqdim etilgan nusxalar **DIN A4** formatida bo'lishi kerak.

Viza olish uchun quyidagi hujjatlarni taqdim etishingizni so'raymiz:

konsullik badali:

- 12 yoshga to'lgan shaxslar uchun 60 yevroni tashil etadi; 6 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun 35,- yevroni tashkil etadi. Besh yoshgacha bo'lgan bolalar uchun bepul.
- Ayrim shaxslar (masalan Yevropa ittifoqiga a'zo davlat fuqarosining turmush o'rtog'i va voyaga yetmagan farzandlari) va ma'lum bir maqsadda safar qilayotgan shaxslar viza badalini to'lashdan ozod etiladi. Bu haqida batafsil ma'lumotni viza bo'limidan olishingiz mumkin.
- **Faqat o'zbek so'mida** Viza bo'limining aktual almashinuv kursi bo'yicha qabul qilinadi.

pasport (asli + shaxsiy ma'lumotlar keltirilgan sahifasining 1 nusxasi):

- kamida ikkita viza uchun bo'sh sahifaga ega bo'lishi
- so'nggi 10 yil ichida berilgan
- amal qilish muddati so'ralayotgan viza muddati tugagandan keyin yana kamida uch oyni tashkil etishi shart.

Shengen vizasi uchun batafsil to'ldirilgan **viza so'rovnomasi blanki** (⇒ elchixona web-sahifasidan yuklab oling)

2 dona yangi biometrik **fotosur'at** (ulardan biri so'rovnomaga yopishtirilgan holda):

- Biometrik, oq rangli fonda
- 3,5cm x 4,5 cm
- ishlov berilmagan rasm!

Tibbiy sug'urta polisi (1 nusxa):

- barcha Shengen davlatlarida amal qiladigan
- rejalashtirilgan kunlar va 15 kunlik qo'shimcha muddatni o'z ichiga olgan qoplama miqdori 30.000 yevrodan kam bo'lmagan
- sug'urta polisi Germaniyada (taklif qiluvchi shaxs tomonidan yoki online tarzda) yoki O'zbekistonda tuzilishi mumkin

- rejalashtirilgan safarning** arizachi yoki sayyohlik agentligi tomonidan nemis tilida qisqacha **tavsifi** yoki uning nemis tiliga tarjimasi
- Aviachipta bron**i
- Mehmonxona bron**i
- Bank **hisob raqamidan ko'chirma** (O'zbekiston banki bo'lsa: hisob raqamidan ko'chirmaning asli – u viza bo'limida qoladi)
- Tegishli bo'lsa: **mehnat faoliyatini** tasdiqlovchi hujjat
 - Ishchilar uchun: ish beruvchining manzili va telefon raqamlari (web sahifasi/e-mail) keltirilgan ish joyidan ma'lumotnoma (asli viza bo'limida saqlab qolinadi)
 - Mustaqil ravshda ish yurituvchilar uchun: firmaning hokimiyatda ro'yhatdan o'tganligi haqida guvohnomasi (STIR/INN) raqami va firma egasi qayd etilgan hujjat (asli + 1 nusxasi)

Balog'at yoshiga yetmagan arizachilar uchun:

- Bolaning tug'ilganlik haqida guvohnomasi nusxasi
- Vasiylik huquqiga ega shaxslar pasportining shaxsiy ma'lumotlar keltirilgan varag'i nusxasi
Vasiylik huquqiga 2 shaxs ega bo'lsa va ularing ikkisi ham ariza topshirish vaqtida hamrohlik qilayotgan bo'lsa:
- Vasiylik huquqiga ega shaxslarning ariza blankidagi shaxsiy imzolari
- agar vasiylik huquqiga ega bo'lganlarning faqat birigina ariza topshirish vaqtida hamrohlik qilayotgan bo'lsa:
vasiylik huquqiga ega ikkinchi shaxsning bolaga safar uchun notarius tomonidan tasdiqlangan ruxsatnomasi
Vasiylik huquqiga bir kishi ega bo'lsa:
- Bola tarbiyasi uchun faqat bir kishi mas'ulligini tasdiqlovchi hujjat (masalan sud qarori yoki FXDYO ma'lumotnomasi)
- Vasiylik huquqiga ega shaxsning ariza blankidagi shaxsiy imzosi

Viza bo'limi vaziyatga qarab viza so'rovmangiz borasida qaror qabul qilishi uchun qo'shimcha hujjatlar talab qilishi mumkin. Bu haqida ma'lumot sizga hujjat topshirayotganingizda yoki topshirganingizdan so'ng beriladi.